



Volume 1, Issue 1(18), 2024

Journal of Physics and Technology Education



<https://phys-tech.jdpu.uz/>

Chief Editor:

Sharipov Shavkat Safarovich

Doctor of pedagogy, Professor, Rector of Jizzakh
State Pedagogical University, Uzbekistan

Deputy Chief Editor:

Sodikov Khamid Makhmudovich

The Dean of the Faculty of Physics and
Technological Education, dotsent

Orishev Jamshid Bahodirovich

Senior teacher of Jizzakh State Pedagogical
University, Uzbekistan

Members of the editorial board:

Ubaydullaev Sadulla, dotsent

Ismailov Tuychi Djabbarovich, dotsent

Kholmatov Pardaboy Karabaevich, dotsent

Umarov Rakhim Tojievich, dotsent

Murtazaev Melibek Zakirovich, dotsent

Abduraimov Sherali Saidkarimovich, dotsent

Tugalov Farkhod Karshibayevich, dotsent

Taylanov Nizom, senior teacher

Tagaev Khojamberdi, senior teacher

Alibaev Turgun Chindalievich, PhD

Yusupov Mukhammad Makhmudovich,
dotsent

Kurbonov Nuriddin Yaxyakulovich, PhD

Irmatov Fozil Muminovich, PhD

Editorial Representative:

Jamshid Orishev

Phone: +998974840479

e-mail:

jamshidorishev@gmail.com

**ONLINE ELECTRONIK
JOURNAL**

**“Fizika va texnologik ta’lim” jurnali
Журнал “Физико-
технологического образование”
“Journal of Physics and Technology
Education”**

Indexed By:



Publihed By:

<https://phys-tech.jdpu.uz/>

Jizzakh State Pedagogical
University, Uzbekistan

Nashr kuni: 2024-03-30

MUNDARIJA / CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

№	MUALLIFLAR / AUTHORS/ АВТОРЫ	MAQOLA NOMI/ ARTICLE TITLE/ НАЗВАНИЕ СТАТЬИ	SAHIFALAR/ PAGES / СТРАНИЦЫ
1	Qurbonov A.R. Ismoilov S.	<i>Kuchsiz o‘zaro ta’sirlashuvning Feynman diagrammasi orqali tavsiflanishi</i>	5-10
2	Utambetov B. T., Qalmuratova X. A., Ibraymova S. B.	<i>O‘qituvchi faoliyatida pedagogik texnikaning ahamiyati</i>	11-17
3	Ibroximov M. A., Axmadjonova S. A.	<i>Raqamli ta’lim davrida innovatsion tarbiya texnologiyalarining talabalar tarbiyaviy faoliyatidagi o‘rni</i>	18-24
4	Xolmatov Pardaboy Qorabekovich	<i>Bo‘lajak zamonaviy texnologiya fani o‘qituvchisining kasbiy mahoratini rivojlantirish</i>	25-29
5	Jabborov A. Xolmatov P.Q.	<i>Bo‘lajak zamonaviy texnologiya fani o‘qituvchisining pedagogik mahorati va ulardan foydalanish yo‘llari</i>	30-38
6	Oltmishev Toxirjon Turgunovich	<i>Qalamtasvir va uning maqsad-vazifalari</i>	39-42
7	Oltmishev Toxirjon Turgunovich	<i>Uzuz chiziqlardan to ‘g’ri foydalanish qoidasi</i>	43-48
8	Umarov R.T., Isoqov Sh.T.	<i>Bobur o‘z davrining bunyodkori</i>	49-53
9	Umarov R.T., Nazarov O.	<i>Bobur va boburiylar davrida musavvirlik san’ati</i>	54-58
10	Sharipov A.A., Jaloldinova S.X. Qalmuratova X.A., Islomova N.Sh.	<i>Texnologiya fanini axborot texnologiyalari asosida o‘qitish orqali o‘quvchilarni intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish</i>	59-62
11	Po‘latov J.H., Alqorov Q.X.	<i>Texnologik ta’limi o‘qituvchisini tayyorlashda fizikaga uzviy bog‘langan laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil qilish asoslari</i>	63-66
12	Eshmatova Sh.T., Alqorov Q.X.	<i>Umumta’lim maktablarida fizika fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish</i>	67-70
13	Orishev J.B., Jumanova S.H.	<i>Bo‘lajak o‘qituvchilarning loyihaviy faoliyatini tashkil etishga oid ba’zi mulohazalar</i>	71-78
14	Ortiqova O.Sh., Aqbo‘tayeva B.M.	<i>Kostyum tashkil etilishida rang xususiyatlari</i>	79-82

15	<i>Xolmatova M.Q, Alqorov Q.X.</i>	<i>Ta'lim taraqqiyotida interfaol uslublarning ahamiyati</i>	83-88
16	<i>Xotamov J.A., Ummatova S.Z.</i>	<i>Metagalaktikaning izotroplik va bir jinslilik xususiyatlari</i>	89-91
17	<i>Xotamov J.A., Ummatova S.Z.</i>	<i>Kengayuvchan koinotning kosmologik modellari</i>	92-94
18	<i>Tursunboyev O.V., Quvondiqov M.K., Boboqulova Z.V.</i>	<i>Yadro fizikasini o‘qitishda “yalpi fikriy hujum” strategiyasi asosida muammoli masalalarni tahlil qilish</i>	95-99
19	<i>Ortiqova O.Sh., Xudoyqulova Z.M.</i>	<i>Kostyum detallarini chizish va modellarning dekorativ bezatilishi</i>	100-105
20	<i>Abdirayimova Dilnoza Azamat qizi</i>	<i>O‘quvchilarni kasb - hunarga yo‘naltirishga oid pedagogik jarayonlar</i>	106-111

KOSTYUM DETALLARINI CHIZISH VA MODELLARNING DEKORATIV BEZATILISHI

Ortiqova Ozoda Sharofovna¹, Xudoyqulova Zuhra Maqsudjon qizi²

¹A.Qodiriy nomidagi JDPU o’qituvchisi, ²Dizayn yo’nalishi talabasi,

Jizzax sh, O’zbekiston

e-mail: ozoda_o@jdpu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada kostyum detallarini chizish va modellarning dekorativ bezatilishi to’g’risida keng ma’lumot beriladi. Shu bilan birga, kostyumlarning dekorativ bezashning ahamiyati haqidagi muhim g’oyalar qayd etildi.

Kalit so’zlar: kostyum, bezak, mato, charm, tasvir, faktura, siluet, garderob, vitochka, taxlama.

Аннотация: В данной статье представлена обширная информация по рисованию деталей костюма и декорированию модели. При этом были отмечены важные представления о значении декоративного оформления костюмов.

Ключевые слова: костюм, отделка, ткань, кожа, образ, фактура, силуэт, гардероб, виточка, отделка.

Abstract: This article provides extensive information on drawing costume details and decorating models. At the same time, important ideas about the importance of decorative decoration of costumes were noted.

Key words: suit, decoration, fabric, leather, image, texture, silhouette, wardrobe, vitochka, trim.

Chizishni boshlashda bizni qiziqtiruvchi to’ldirishli va detalli aniq siluet shakl mahsulotlarini tanlash zarur. Yengil ko’ylak tasviri yoki yotuvchi siluetdan boshlash kerak, chunki figura plastikasi ko’ylakda yaqqolroq ifodalangan. Keyin to’g’ri va trapetsiyasimon shakldagi mahsulotlarni chizish mumkin. Chizish ketma-ketligi oddiy, ya’ni birinchi bosqich - qog’oz varag’ida tasvirning komponovkasi. Bir qog’ozda alohida detallar – yoqa, cho’ntaklar, belbog’ bilan

mahsulot qismi, yengda manjetlar va hokazo chizishdan boshlaydilar yoki bir qog‘ozda turli shakldagi yoqalar, boshqasida cho‘ntaklar va hokazo chizadilar. Tasvir komponatsiyalangandan keyin alohida qismlar proporsiyasini o‘rnatib, detallarni chizishga o‘tiladi. Gazlama fakturasiga qarab, shtrix va dog‘lar bilan uning hajmliligi ajratib ko‘rsatiladi.

Shaklni umumlashtirib va alohida detallar xarakterini ajratib ko‘rsatib rasm tugatiladi. Masalan, turli shakldagi yoqalar, manjetli yenglar, cho‘ntaklar va hokazo geometrik fazoviy shakllar, qatlamalar, eshilishlar va hokazo tasvirlash jarayonida olingan bilimlardan foydalanib tasvirlaydilar, mayin chiziqlar bilan belgilanadi, so‘ng esa shtrix bilan shakl bo‘yicha qatlamalar shakli, yoqa cheti, ikki qatlangan gazlama qalinligi va hokazo ko‘rsatiladi. Muayyan vaqtda biz kiyadigan va hammasi uchun biron-bir umumiy xususiyat, masalan, modaning yangi yo‘nalishi bilan birlashgan narsalar «garderob» tushunchasini hosil qiladi.

Yengil sanoat mahsulotlari assortimenti bo‘yicha paltolik, kostyumlik, ko‘ylaklik guruhi, hamda ichki kiyimga bo‘linadi.

Palto, yarimpalto, kostyumlar ustki kiyimga; plashlar, kombinezonlar, kurtkalar, yengil kostyumlar, bryukli ansambllar – kostyum guruhiga; ko‘ylaklar, xalatlar, yengil gazlamalardan ko‘ylak – kostyumlar, bluzkalar, yubkalar, sarafanlar – yengil ko‘ylakka; yotoq ko‘ylaklari, kombinatsiyalar, penyuarlar, pijama kostyumlari va hokazo ichki kiyimga kiradi.

Modaga qarab bu katta guruhlar klassik assortimentga kiruvchi yangi mahsulotlar bilan to‘ldiriladi.

Vazifasi bo‘yicha kiyimlar maishiy, sport, ishlab chiqarish va forma kiyimiga bo‘linadi. Bu bo‘linish oxirgi emas. Masalan, maishiy kiyim – uy kiyimi, kundalik kiyim, dam olish uchun kiyim, tantanali kiyim, milliy kiyimlarga bo‘linadi.

Uy kiyimi – uxlash, ertalabki va kechki tualet, uy ishlashi, uy sharoitida dam olish uchun mo‘ljallangan. Bunday kiyim qulay, harakatlarni qismaydigan, ko‘z

uchun yoqimli va qulay, unda yordam olishga yordam beruvchi va hokazo bo’lishi kerak.

Uy kiyimi yengil ip-gazlama, shtapel, ipak, yarimjunli gazlamalardan tayyorlanadi. Bunday gazlamalar yumshoq qatlamalar hosil qiladi, «yengillik» taassurotini uyg’otadi. Uy kiyimi uchun ochiq bo’lmagan gul bosishlar qo’llanadi – mayda no’xat, yo’l-yo’l, katakcha va hokazo. Kundalik kiyimi – ish faoliyati uchun mo’ljallangan, odatda funksional qulay, kamtarin bezaklar, ko’zni charchatmaydigan detallar bilan xarakterlanib, atrofdagilarni ishdan chalg’itmaydi. Kundalik kiyim ranglari odatda tinch – kul rang, biron-bir rangga yaqin axromatik yoki ranglar tusida. Bu kiyim klassik yoki sport kiyimi, uslubi bo’yicha atrofdagi ish muhiti bilan uyg’unlashuvi kerak.

Chiqish kiyimi – teatr, konsert, yangi yil bazmi, bitiruv kechasi va hokazo uchun ranglarning quvnoq mosligi, rangda, gazlamalar rasmi va bezagidagi imkoni bor kontrastlar bo’lgan gazlamalardan bajariladi, turli aksentlar bilan tayyorlanadi.

Chiqish kiyimi uchun odatda modaning ushbu yo’nalishi bilan taklif etiluvchi assortimentidan eng o’tkir modellar yaratiladi.

Dam olish uchun kiyim dam olish joyi va vaqtiga mos keladi. Yozgi va qishki dam olish uchun kiyim eng avvalo bir-biridan assortiment bilan farq qiladi.

Maishiy kiyim milliy kiyimni ham o’z ichiga oladi. Har bir millatning kundalik, chiqish va marosimiy kiyim o’z assortimenti bo’lib, u rassom-modeler uchun ilhom manbai bo’lib xizmat qiladi, undan u zamonaviy kostyum yangi shakllari yaratish uchun shakl, kolorit, naqsh dekorativ bezaklarni o’rganadi.

Sport kiyimi – har bir sport turiga mos keladi – aerobika, chang’i sporti, konkida yugurish sporti, voleybol, gimnastika mashg’ulotlari uchun kostyum. U qulay, chiroyli, yengil, shamol, yog’ingarchilikka chidamli va hokazo bo’lishi kerak. Bunday kiyim uchun qo’llanuvchi gazlamalar jun, singdirishli elastik, qavatli gazlamalar, ranglari kontrast ochiq.

Ishlab chiqarish kiyimi – turli kasblar bilan bog‘liq. Rassomlar ularni yaratishda barcha kasb xususiyatlarini hisobga olinadi va kasbga mos modellarni yaratishda ularni qo‘llashadi. Montajchilar, kosmonavtlar, g‘avvoslar va hokazo uchun maxsus kiyimlar mavjud.

Formali kiyim – kishining tashqi va ichki uyushganligiga mos keladi va armiya, flot, aviatsiya, militsiya, turli idoralarda foydalaniladi.

Uslubi bo‘yicha kostyum klassik, romantik, sport – ishbilarmonlik va hokazo, yosh jins xususiyatiga ko‘ra – ayollar, erkaklar va bolalar kiyimi bo‘ladi.

Kostyum shakli tuziluvchi asosiy gorizontal chiziqlar – bu yelkalar, ko‘krak, bel, bo‘ksa, etak chiziqlari. Bu chiziqlar to‘g‘ri, shuning uchun ular yordamida kostyumda osoyishtalik, harakatsizlik (statika) hisi ifodalanadi. Gorizontal qismlar yordamida figuraga barqarorlik bag‘ishlab, uning ko‘rinishini qisqartirishimiz mumkin. Vertikal chiziqlar modelning dinamik yechimini kuchaytirib, figurani uzaytiradi (ma’lum ritmda vertikal chiziqlar figurani qisqartirish, gorizontal chiziqlar esa uzaytirishi mumkin).

Diagonal chiziqlar kostyumda harakatni kuchaytiradi, bunda uzoqlashishi joylarida shaklni kengaytiradi, yaqinlashuv nuqtalarida esa toraytiradi.

Kostyum kompozitsiyasini belgilashda, istalgan yo‘nalishdagi chiziqlardan foydalanish, ulardan biron-birini ajratib ko‘rsatish mumkin.

Siluet «yasovchi» asosiy dekorativ va konstruktiv chiziqlarga vitochkalar, bo‘rtmalar, mayda taxlamalar, taxlamalar, burmalar, pardozlovchi baxyaqatorlar kiradi.

Vitochkalar – shunday chiziqlarki, ular yordamida gavdaga yotuvchi turli hajmlar hosil bo‘ladi. Ko‘krak, bel va bo‘ksa sohasida yenglarda vitochkalar mavjud.

Ko‘krak sohasida bo‘rtma hosil qilish uchun ko‘krak usti vitochkalar aylana bo‘ylab o‘tkazilishi mumkin – yeng o‘mizi, yon chekka, bel chizig‘iga old o‘rtasiga, yoqa o‘miziga. Bel va bo‘ksada vitochkalar zarur joyda bo‘rtishlar hosil

qilishda yordam berib siljirilishi mumkin. Ayollar kostyumida vitochkalar u yoki bu yotuvchi shaklni yaratishda muhim rol o‘ynaydi.

Bo‘rtmalar, bo‘rtma chiziqlar – vitochkalar kabi kostyumning asosiy, belda yotuvchi va boshqa shakllarini shakllantiradi. Ular ham konstruktiv ham dekorativ (bezash) ahamiyatiga ega bo‘lishi mumkin. Bo‘rtmalar beykalar, jiyaklar, tasmalar va hokazo bilan ajratilib ko‘rsatilishi mumkin.

Mayda taxlamalar gazlamada 2-4 mm vertikal yoki gorizontal bukib tikiladi, konstruktiv (amaliy) rol bajaradi, kostyum tashkil etilishida vitochkalar o‘rnini bosadi va qiziqarli ritm hosil qiladi.

Taxlamalar – turlicha bo‘lishi mumkin – yirik, mayda, ko‘krak qismi, yubkalar, yenglar, yoqa va cho‘ntaklarning ritmik qiziqarli shaklini yaratish uchun qo‘llaniladi.

Burmalar turli funksiyalarni bajaradi – konstruktiv va dekorativ, turli kattalikda hajmlar yaratishda yordam berib, shaklni xilma-xillashtiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan kostyumlarni badiiy dekorativ bezash usullari va vositalari haqidagi ma’lumotlardan mash’gulotlarda foydalanib borish o‘quvchilarning mavzu yuzasidan bilim va malakalarining samarali shakllanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullaeva Q.M. Tikuvchilik buyumlarini loyihalash va modellashtirish asoslari. O‘quv qo‘llanma. T.: “Adabiyot” 2016 yil.
2. F.Otaxonova “Zamonaviy liboslarni modellashtirish”G.Gulom nomidagi nashriyot T-2016
3. Gai’ova N.S.va boshqalar. Tikuvchilik texnologiyasi asoslari. O‘quv qo‘llanma. T.: “Adabiyot” 2006 yil.

4. Ayollar yengil kiyimi konstruksiyalash va modellashtirish. O’quv qo’llanma.”Talqin ”nashriyoti Toshkent 2017.
5. Sadikova N. “O‘zbek milliy kiyimlari”, O‘quv qo‘llanma, Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2016 y.
- 6.Ortiqova, O. (2023). Research on the process of independent work activities of students in technology education. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(11), 85-87.
7. Ortiqova, O, Nazirova N (2021). Quroqchilik san'atining rivojlanishi. *Fiziko-texnologicheskogo obrazovanie*
- 8.Ortiqova, O. (2023). Texnologiya fanini integrallab o‘qitishda yoshlarni ekologik madaniyatini shakllatirishning yo‘llari. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(1 Part 1), 27-29.
- 9.Ortiqova, O. (2023). Talablarning texnologiya ta’lim fanidan mustaqil ish faoliyati jarayoni bo‘yicha tadqiqot. *Evrasiyskiy jurnal sotsialnyx nauk, Filosofii i kultury* , 3 (11), 85-87.
- 10.Ortiqova, O. va Nazirova, N. (2021). Quruq san'atning rivojlanish bosqichlari. *Fiziko-texnologicheskogo obrazovanie* , 7.
- 11.Tagaev, X., Alkarov, K. X., Артикова, О. Ш., & Мамаджанова, К. А. (2016). Патент-как ядро и стратегический шаг вперед к новым высотам технической и инженерной мысли. In *Современные тенденции развития аграрного комплекса* (pp. 1773-1776).
- 12.Ortiqova, O. (2023). Milliy liboslarda bezaklar va pardoz-andozlarning ishlatilishi. *Физико-технологического образование*, (3).
- 13.Ortiqova, O. (2021). Ayollar kiyimlarini yaratilish tarixidan. *Физико-технологического образование*, 5.